

Ko`p imkoniyatli zamonaviy meteostansiya yaratildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Quyosh energiyasi xalqaro instituti olimlari tomonidan meteostansiya ishlab chiqildi.



Quyosh energiyasi xalqaro instituti binosiga o'rnatilgan meteostantsiya bir vaqtning o'zida Quyosh nurlanishi quvvatini, shamol tezligi va yo'nalishini, atrof-muhit haroratini o'lchash imkonini beradi. Meteostansiya Quyosh nurlanishi quvvatini o'lchaydigan ikkita datchikdan, biri gorizont ravishda, ikkinchisi, gorizontga 45o burchak ostida joylashtirilgan, shamol tezligi va yo'nalishini o'lchaydigan datchikdan hamda haroratni aniq o'lchaydigan termometr dan tashkil topgan. Ushbu qurilmalardan olingan ma'lumotlar ikkilamchi qurilma orqali kompyuterga yuboriladi. Kompyuterda Institut olimlari tomonidan yaratilgan maxsus dastur o'rnatilgan, har bir daqiqada (vaqt oralig'ini 60 daqiqagacha o'zgartirish mumkin) o'lchangan ma'lumotlar kompyuterda saqlanib boriladi. Meteostansiya tizimi elektr energiya ta'minoti yuqori samaradorlikka ega bo'lgan Quyosh fotoelektrik modullari tomonidan amalga oshiriladi. Respublika bo'ylab bunday qurilmalarni yuzlab/minglab o'rnatish ko'zda tutilmoqda va bu O'zbekistonda energetik bashoratlash (Energy metrology)ni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada katta miqdorda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulangan elektr tarmoqlariga ega energetika tizimini turg'unligini saqlashda muhim bo'lgan naukasting bashoratlash (nowcasting) tizimi yaratiladi.